

NIZONI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA VA HAKAMLIK SUDINING RO'LI VA AHAMIYATI

Ibratova Feruza Boboqulovna

*Toshkent davlat yuridik universitetining
professor v.b., yuridik fanlar doktori*

Maxkamov Doston Shokir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: Nizolarni muqobil hal qilish tushunchasi ,uning mohiyati ,avzallik jihatlari, nizolarni muqobil hal qilishning o`ziga hos hususiyatlari ,mediatsiya tushunchasi va mohiyati mediatsiyaning asosiy prinsiplari ,hakamlik sudi tushunchasi va mohiyati ,hakamlik sudining asosiy prinsiplari va vazifalari.

Kalit so'zlar: nizolarni muqobil hal qilish, mediatsiya, mediatsiya maqsadi, mediatsiyaning prinsiplari ,hakamlikn sudi ,hakamlik sudi prinsiplari.

Аннотация: Понятие альтернативного разрешения конфликтов его сущность преимущества аспекты, альтернативное разрешение споров особенности голоса гилиша, концепция посредничества и сущность основных принципов посредничества ,понятие арбитража и сущность, основные принципы и задачи арбитражных судов.

Ключевые слова: альтернативное разрешение конфликтов, посредничество, цель посредничества.

принципы медиации ,арбитражного разбирательства ,принципы арбитражного разбирательства.

Annation: The concept of Alternative Dispute Resolution its essence is aspects of the advantage, Alternative Dispute Resolution features of the conflict, the concept of mediation and the essence is the basic principles of mediation ,the concept of arbitration courts and essence, basic principles and functions of arbitration courts.

Keywords: alternative dispute resolution, mediation, mediation purpose. principles of mediation ,arbitration court ,principles of Arbitration Court.

Hozirgi kunda rivojlangan xorijiy davlatlar huquqiy tizimida nizoni sudgacha olib bormasdan, muqobil yo'l bilan hal qilishga qaratilgan mediatsiya va hakamlik sudi yarashtiruv protsedurasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda ham chinakam bozor mexanizmlarining joriy

qilinishi va amalga oshirilishi bozor munosabatlarning har bir sohasini tartibga soluvchi zarur huquqiy zamin yaratilishini talab qiladi⁶⁷.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada kuchaytirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli kafolatlash, qonun ustuvorligi hamda ijtimoiy adolatni ta'minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu islohotlarning muhim yo'nalishi bo'lgan sud-huquq tizimini liberallashtirishning hozirgi bosqichida mediatsiya hakamlik sudlari nizolarni muqobil hal qilishning fuqarolar va tadbirkorlar ishonchiga sazovor bo'ladigan instituti sifatida qaror topdi va samarali faoliyat yuritmoqda⁶⁸.

Shu bilan birga, ushbu sohada islohotlarning hozirgi bosqichi davlat organlarida nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlarini fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo'ladigan nizolarni hal etuvchi samarali muqobil institutlarga aylantirish lozimligini taqozo etmoqda⁶⁹.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida nizolarni vujudga kelishi tabiiyidir. Albatta ular o'z nizolarini hal etish uchun odatdagi yo'lni tanlashlari, ya'ni sudga murojaat qilishlari mumkin. Muqobil tarzda ular o'z nizolarini sudgacha, hozirda nizolarni muqobil hal etishning (NMH) usullaridan bo'lgan va chet davlatlarda samarali ishlatilayotgan yarashtiruv taomillari – mediatsiya, hakamlik muhokamasi, xalqaro tijorat arbitraji orqali hal etishlari mumkin.

Nizolarni muqobil hal etish deganda davlatning odil sudlov tizimidan tashqarida nizolarni hal etishning uslub va usullari tushiniladi. NMH usullarining yagona tasnifi mavjud emas, quyida ularning ba'zi turlari keltiriladi⁷⁰.

Nizolarni muqobil hal etish usullari har bir jamiyatning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy omillari ta'sirida rivojlangan. Nizolarni uchinchi shaxs (xolis)ga havola qilgan holda hal etish dunyodagi ko'p jamiyatlarning qadim tarixiga borib taqaladi⁷¹.

Ko'p Nizolarni muqobil hal etish usullariga xos xususiyatlar – bu taraflarning nizoni hal etish uchun boshqa uchinchi shaxsni tanlay olish imkoniyati, taomillarning egiluvchanligi (moslashuvchanlik), ya'ni nizolashuvchi taraflar u yoki bu taomilni tanlashi, o'zgartirishi bir so'z bilan

⁶⁷ Арпентьева М. Р. Медиация в контексте проблем альтернативного разрешения споров //Вестник Федерального института медиации. – 2017. – №. 2. – С. 48-64.

⁶⁸ Ibratova F. Problems of a settlement in bankruptcy cases in economic courts //Norwegian Journal of Development of the International Science. – 2019. – №. 28-3. – С. 23-25.

⁶⁹ Арпентьева М. Р. Медиация в контексте проблем альтернативного разрешения споров //Вестник Федерального института медиации. – 2017. – №. 2. – С. 48-64.

⁷⁰ Ibratova F. Foreign Practice of Use of Mediation on Collective Labor Disputes //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 57-62.

⁷¹ Романенко М. А. Альтернативные формы разрешения правовых конфликтов: выбор оптимальной модели //Вестник Астраханского государственного технического университета. – 2005. – №. 5. – С. 244-251.

aytganda o'zlariga moslab olish imkoniyati mavjudligi⁷². NMH taomillarini norasmiy tusda o'tishi, nizoni hal etuvchi shaxs taraflarga choy yoki kofe taklif etgan holda taomilga norasmiy tus berishi va nizolashuvchi taraflar o'rtasida hamkorlik ruxini uyg'otishi mumkin. Ba'zida Nizolarni muqobil hal etish taomili vaqtida bir tarafning boshqasidan kechirim so'rashi natijasida nizo tezda hal etilib ketishi mumkin. Bu jarayonda nizoni hal etish uchun tanlangan shaxsning maxorati katta ahamiyatga ega⁷³.

Bugungi kunda mamlakatimizda Nizolarni muqobil hal etish ning mediatsiya va hakamlik sudidan keng foydalanilmoqda/

Mediatsiya – bu taraflarni xolisga murojaat qilgan holda nizoni hal etishdir⁷⁴. Biroq ushbu taomilda xolis taraflarga maslahat berishi, nizo bo'yicha qaror qabul qilish huquqi ega emas. U faqat taraflarni nizoni o'zlari hal etishi uchun yo'naltiradi. Ushbu ko'rinishdagi mediatsiya chet el adabiyotlarida e'tirof etiladigan mediatsiyaning mohiyatini tashkil etadi⁷⁵.

Mediatsiyaning maqsadi – nizo ishtirokchilarining o'z kelishmovchiliklarini mustaqil hal qilish layoqatiga, o'zaro talablarini qondirishga va har ikki taraf uchun baravar foydali bo'lgan kelishuvga erishishlariga ko'maklashishdan iboratdir.

Bu kabi nizoni hal qilish samaradorligiga nizolashayotgan taraflarda kelajakka yo'naltirilgan maqsadli harakatlari hisobidan kooperatsiya va kommunikatsiyaga bo'lgan qobiliyatning ochilishi tufayli erishiladi, bu esa nizo taraflariga vaqtni, pulni va emotsional resurslarini tejashga yordam beradi. Shu boisdan O'zbekistonda ham mediatsiya sohasini rivojlantirishga oid qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Hususan 2018-yil 3-iyulda O'zbekiston Respublikasida mediatsiya to'g'risidagi O'RQ-482 sonli qonunni qabul qilinishi bu boradagi dastlabki qadam bo'ldi. Ushbu qonunga binoan mediatsiya maxfiylik, ixtiyoriylik, taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, mediatorning mustaqilligi va xolisligi prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Mediatsiyani qo'llashning qator avzallik jihatlari bor.

Birinchidan huquqlarni davlat sudlarida himoya qilishning sud shaklidan mediatsiya jarayonining asosiy farqi mediatorning nizoning mohiyatiga nisbatan o'z-o'zidan hech qanday qaror qabul qilmasligi hisoblanadi. Mediatsiya doirasidagi barcha qarorlar faqat taraflarning o'zaro roziligi asosida qabul qilinadi. Sudda nizolar sud'yalar tomonidan taraflar uchun

⁷² Ibratova F. Legal Problems of the Concepts Legality, Justification and Justice by Judicial Acts //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 16.

⁷³ Кузина В. И. Понятие, отличительные черты, преимущества и недостатки альтернативного разрешения споров //Мониторинг правоприменения. – 2012. – №. 4. – С. 69-73.

⁷⁴ Ibratova F. BANKRUPTCY OF A LIQUIDATED BUSINESS ENTITY: PROBLEMS AND SOLUTIONS //Norwegian Journal of development of the International Science. – 2021. – T. 2021. – С. 45.

⁷⁵ Ibratova F. B. et al. Special features of modern legal systems: cases and collisions. – 2017.

majburiy bo'lgan va majburiy tartibda ijro qilinishi mumkin bo'lgan qarorlar chiqarish yo'li bilan tugatiladi⁷⁶.

Ikkinchidan, sudlarda ishlarning ko'pligi va ishlarni ko'rib chiqish oylab cho'zilganligi tufayli mediatsiya orqali nizolarni hal etish vaqtning tejallishiga olib keladi, ko'pincha bir ish bo'yicha nizolar ikkinchi va uchinchi instansiyada davom etadi, yutqazgan taraf sud hujjatlari ustidan shikoyat qiladi. Yuridik yordam olishga sarflanadigan xarajatlar sud jarayonining davom etish muddati bilan uzviy bog'liq bo'lganligi tufayli nizolarni tezkorlik bilan hal qilinishi mediatsiyaning tejamkorligini bildiradi⁷⁷.

Uchinchidan, mediatsiya o'zgaruvchan jarayon hisoblanib, taraflar nizoni ko'rib chiqish jarayonini o'z xohishiga ko'ra tartibga solishlari mumkin, ularga muammoni muhokama etish uchun erkin sharoit yaratiladi. Shu bilan birga mediatorning o'zi ham taraflarga nizoni hal qilish yo'lini topishga yordam beradi⁷⁸.

To'rtinchidan, sud ishining ommaviyligi, oshkoraligi va ochiqligidan farqli ravishda mediatsiya jarayoniga maxfiylik xosdir. Taraflardan olingan barcha malumotlar, «devordan tashqariga chiqmaydi» va mediatorning faoliyati tugagandan so'ng uning barcha yozuvlari yo'q qilinishi lozim⁷⁹.

Beshinchidan, sud qarorlari har doim ham taraflar istagan oqibatga olib kelmaydi (kamida bir taraf ishning natijasidan noroziligicha qoladi) va bu holat kelajakda sud qarorlarini nafaqat ixtiyoriy bajarishdan bosh tortilishiga, balki bajarishga majburiy to'sqinlik qilinishiga olib keladi. Mediatsiya davomida barcha qarorlar taraflarning ikki tomonlama kelishuviga ko'ra qabul qilinadi va ikkala taraf o'zlari tomonidan birgalikda qabul qilingan qarorlarini ixtiyoriy ravishda bajarish majburiyatini oladilar.

Oltinchidan, mediatsiyaning rad etib bo'lmaydigan ustunliklari ichida taraflar o'rtasidagi yaxshi, do'stona munosabatlarni saqlab qolish hisoblanadi. Mediatsiya ayniqsa, mulkni taqsimlash, er-xotinlar, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish, mehnat nizolarini hal etish bilan bog'liq muammolarni hal etishda samarali hisoblanadi⁸⁰.

Nafaqat taraflarning kelishmovchilikni yengishga intilishi va irodasi, balki mediatorning qobiliyati va tajribasi ham muhimdir. Jamiyatning

⁷⁶ Коровяковский Д. Г., Илюхина С. С. Альтернативные способы разрешения споров во внешнеэкономической деятельности в свете вступления России в ВТО // Ученые труды Российской академии адвокатуры и нотариата. – 2014. – №. 4. – С. 73.

⁷⁷ Ibratova F. B. The Concept and Characteristics of Bankruptcy Procedures for Business Entities With the Status of a Legal Entity // Middle European Scientific Bulletin. – 2022. – Т. 20. – С. 143-147.

⁷⁸ Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE // Editorial team, (2021). – 2021. – Т. 45.

⁷⁹ Семилутина Н. Г. Корпоративные споры и развитие альтернативных механизмов разрешения споров // Журнал российского права. – 2015. – №. 2 (218). – С. 112-127.

⁸⁰ Ibratova F. Bankrotlik to'g'risidagi ishlarda prokuror ishtiroki.

mediatsiyaga bo'lgan talabi shunga olib keldiki, natijada dunyoda 30 yil oldin sekin-asta yangi kasb – mediator kasbi shakllana boshladi. Mediatorlar faoliyati vujudga kelgan muammolar, kelishmovchilik va nizolarni hal qilishga yordam berishga qaratilgan. Mediator dalillarni o'rganmaydi va taraflarning talablari qonuniyligiga baho bermaydi, uning asosiy vazifasi – taraflar orasida o'zaro tushunishni ta'minlash, hamma ishtirokchilar uchun maqbul bo'lgan sharoitlarda muammoni hal qilish imkoniyatini amalga oshirishni aniqlash va yordam berish hisoblanadi. Mediator vaziyat va uning orqasida turgan taraflarning hissiyot, manfaat, xohish va talablari oldin aytilishi, keyin eshutilishi, va nihoyat, hamma ishtirokchilarga tushunarli bo'lishi uchun mumkin bo'lgan hamma narsani qiladi⁸¹. Faqat shundan keyingina mediatorning faol ishtiroki bilan dalillar qayta ko'rib chiqiladi va birgalikdagi qaror ya'ni, barcha taraf uchun maqbul bo'lgan nizoning yechimi ishlab chiqiladi. Bu jarayon nafaqat nizo va uning natijasida kelib chiqadigan salbiy hissiyotlarni yengishga imkon beradi, balki kelajakda ishonch asosida yangi kelishuvlarga erishishga ham yordam beradi⁸².

Shu o'rinda savol tug'iladi nima sababdan Mediatsiya instituti nizolashuvchi taraflar uchun foydali ,tejamli bo'lishiga qaramasdan bugungi kunda mediatsiya yordamida nizolarni hal qilish usuli keng qo'llanilmayapti?

Albatta buning o'ziga yarasha ko'plab sabablari bor.

Mediatsiya instituti bizga kirib kelganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Ko'pchilik Aholi Mediatsiya nimalagi haqida hali malumotga ega emas. Fuqarolar o'z haq –huquqlarini sud orqali himoya qilishni avzal ko'rishadi.To'g'ri sud organlari huquqni himoya qilishning ishonchli vositasi hisoblanadi, lekin bugungi zamonaviy dunyoda nizolarni oson ,tez va arzon usulini qo'llash ancha samarali hisoblanadi. Bugungi kunda Ozbekiston aholisining soni 35 mlndan oshganligini va aholining huquqiy savodxonligi ham ancha o'sganligini bilishimiz mumkin. Tabiyki bu narsa sudlarga bo'lgan murojatlarning sonini oshishiga, buning natijasida sud ishlarini ko'rib chiqishning muddatini cho'zilishiga sabab bo'lmoqda. Sudning davoni ko'rib chiqish muddatining uzoqligi faqatgina o'zbekistondagi muammo emas⁸³. Hususan Italiyada quyi turuvchi sudlarda ishni ko'rib chiqish uchun

⁸¹ Babakulovna I. F., Ibraiyevich E. B., Sodikovich O. S. SIMPLIFIED PRODUCTION IN THE ECONOMIC PROCESS AND ITS FEATURES: NATIONAL AND FOREIGN APPROACH //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – C. 42-50.

⁸² Шабалина Е. А. Альтернативное разрешение споров в форме медиации: опыт США //Конкурентное право. – 2016. – №. 4. – C. 43-46.

⁸³ Babakulovna I. F. GROUNDS FOR THE INTRODUCTION OF BANKRUPTCY PROCEDURES FOR AN INDIVIDUAL ENTREPRENEUR OR AN INDIVIDUAL WHO HAS LOST THE STATUS OF AN INDIVIDUAL ENTREPRENEUR //International journal of professional science. – 2022. – №. 1. – C. 5-9.

o'rtacha 3 yil kerak bo'ladi. Agar sud qarori ustidan shikoyat qilinsa, bu muddat 10 yilga cho'ziladi. Buyuk Britaniyada 73% da'vogarlar Angliya sud tizimining urfdan qolganligi hamda samarasizligidan shikoyat qilishadi. London shahridagi sudlar tomonidan ishni ko'rib chiqish uchun kamida 161 hafta, shahar tashqarisidagi sudlar tomonidan esa 195 hafta talab etiladi⁸⁴. Yevropa mamlakatlarida hatto sudning o'zi ham mediatsiyaga murojaat qiladi, chunki mediatsiyada qaror qabul qilish osonroq va tezroq jarayon xisoblanadi. Evropa mamlakatlarida ajralish masalalari ko'proq mediatsiyada xal qilinadi va undan tashqari mulkiy ishlarda, oilaviy masalalarda, masalani faqat tomonlar bilan cheklashga yordam beradi va uni jamoatchilik oldida olib kelmaydi va tinchlikni saqlab qolish uchun yechimga erishadi. Demak mediatsiya sohasini rivojlantirish davlat sud organlari uchun ham anchayin foydali yani sudlarga tushadigan bosimni kamayishiga olib keladi. Shu boisdan mediatsiya instituti haqida aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot - tashviqot ishlarini amalga oshirish, Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda, Mahalliy davlat hokimiyati organlarida, Viloyat, Tuman, shahar sud organlarida Mediatsiya sohasiga oid malumotlarni hamma kirishi va ko'rishni mumkin bo'lgan joylarga ilib qoyish, Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, Mahalliy davlat hokimiyati organlarida, Viloyat, Tuman, shahar sudyalari murojat qiluvchiga mediatsiya qo'llab ko'rishni taklif qilish mediatsiya sohasining ham rivojlanishiga turtki bo'ladi⁸⁵.

Mediatsiya sohasidagi muammo bu faqatgina ushbu qonunning yangi qabul qilinganligi va ko'pchilik aholining mediatsiya sohasini hali bilmasligidagina emas, Mediatsiya to'g'risidagi qonunning o'zida bir qancha bo'shliqlar va kamchiliklar mavjud. Hususan mediatsiya shartnomasi taraflar uchun majburiy, bajarilishi ixtiyoriylik asosida amalga oshiriladi. Mediatsiya shartnomasi sudda dalil sifatida qo'llash mumkinligi yoki mumkin emasligi ham qonunchilikda bo'shliq bo'lib qolgan, yani agar Mediatsiya talablari bajarilmasa davogar o'z da'vosiga qo'shib mediatsiya shartnomasini kiritgan taqdirda sudya ushbu mediatsiya shartnomasidan kelib chiqqan holda qaror qabul qilishi haqida qonunchilikda hech narsa berilmagan sudya faqat o'z ishonchi asosida ushbu mediatsiya shartnomasini hisobga olishi mumkin.

⁸⁴ Фролова Е. Е. Правовое регулирование альтернативного разрешения споров между поставщиками и потребителями финансовых услуг в Сингапуре //НОМОТНЕТИКА: Философия. Социология. Право. – 2017. – Т. 42. – №. 24 (273). – С. 159-164.

⁸⁵ Babakulovna I. F. SECTION 4. JUSTICE //LBC 60. – 2022.

⁸⁶Prezidentimizning 2020 yil 17 iyundagi “Nizolarni muqobil hal etishning mehanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori nizolarni sudgacha ko‘rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlarining rolini tubdan oshirish, ularning fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo‘ladigan institutlarga aylanishida muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hakamlik sudi – fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal etuvchi nodavlat organ. Hakamlik sudi nizolarni O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va qonunosti hujjatlari asosida hal qiladi. Hakamlik sudi nizolarni hal qilishning eng samarali usullaridan biridir. Hozirgi vaqtda uning qonuniy asosi yaratilgan⁸⁷.

Mamlakatimizda “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi qonun kuchga kirgan sanadan e’tiboran davlat (iqtisodiy, fuqarolik) sudi bilan bir qatorda hakamlik sudlarining faoliyati yo‘lga qo‘yilib, sud-huquqiy islohotlarining yangi muhim bosqichi boshlandi⁸⁸.

Hakamlik sudlari bu davlat sudlari tizimidagi sud strukturasi emas, balki unga parallel va ishtirokchilar ixtiyoriy bitimi va xususiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan nodavlat notijorat tashkilotdir. Hakamlik sudlari yuridik shaxs emas. Hakamlik sudining noyoblighi va o‘ziga xosligi shundaki, uning qarorlari davlat kuchi va obro‘si tomonidan hakamlik sudiga sudlov rasmiy hokimiyat vakolatlarini beruvchi davlat sudlari tomonidan ijro varaqalarini berish orqali ta‘minlanadi. Mustaqil hakamlik sudlarining davlat tizimidagi sudlardan farqi sifatida, birinchi navbatda, hakamlik sudida nizoni ko‘rib chiqish ishtirokchilarining protsessual va moddiy huquq normalarini tanlashdagi erkinligini ta’kidlash lozim.

Hakamlik sudlari sudning mustaqilligini, halolligini, betarafligini va yuqori professional malakasini ta‘minlaydi. Faqat yuristlar emas, balki xo‘jalik sohasidagi turli tarmoqlarning yuqori malakali mutaxassislari ham hakamlik sudyalari bo‘lishlari mumkin. Ular tayinlanmaydi, balki ularni taraflar o‘z xohishlariga ko‘ra saylaydilar⁸⁹.

⁸⁶ Boboqulovna I. F., Orif o‘g‘li R. B. MEDIATSIYA–OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 80-

⁸⁵https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/hakamlik_sudlari_imkoniyatlaridan_kengroq_foydalanish_lozim

⁸⁷ Feruza I., Madina A., Asal R. LEGAL ISSUES OF JUDICIAL PROTECTION IN THE ECONOMIC COURT IN UZBEKISTAN //International journal of professional science. – 2022. – №. 4. – C. 5-10.

⁸⁸ Худойкина Т. В., Прыanziна В. С. Альтернативное разрешение споров и конфликтов в России //Проблемы современной науки и образования. – 2015. – №. 6 (36). – C. 164-166.

⁸⁹ Babakulovna I. F. et al. The Concept and Types of Corporate Disputes: Theory and Practice //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 327-332.

Hakamlik sudi ishni ko'rib chiqishning tezligini va xolisligini ta'minlab, ayni paytda tijorat sirlari qat'iy sir saqlanishini kafolatlaydi. Hakamlik sudlari to'g'risidagi deyarli barcha qonunchilik hujjatlarida taraflar o'z xohishlari bilan sudlov (arbitraj) joyi to'g'risida kelishib olishi mumkinligi nazarda tutilgan. Bu taraflar uchun doimiy ishlaydigan hakamlik sudining ko'chma sessiyasi o'tkazilishi mumkinligini bildiradi.

Hakamlik sudining mohiyati yana shundaki, bunda taraflar ularning ishini ko'radigan sudyani o'zlari erkin tanlash huquqiga ega ekanligidir. Hakamlik sudining davlat sudlaridan farqi shundaki, ish bir oy muddatda ko'rib chiqiladi. Mijoz tomonidan to'lanadigan hakamlik yig'imi, odatda, davlat sudlariga to'lanadigan bojning yarmiga teng miqdorda belgilanadi⁹⁰.

Hakamlik sudiga shartnoma nizolarini hal qilish uchun ikki tomon kelishgan holda keladi. Ular shu ishni hakamlik sudi ko'rib chiqishi uchun hakamlik bitimini tuzadilar. Agar bu bitimga ikki tomondan bittasi imzo chekmasa, hakamlik sudi bu ishni ko'rmaydi. Taraflar orasida hakamlik bitimi tuzilgachgina sudya ishni boshlaydi. Agar mijoz ishni sud binosida emas, u taklif qilgan joyda ko'rinishini istasa, sud buni inobatga oladi. Biroq ikkinchi tomon bunga rozi bo'lmasa, sud buni rad etadi va ishni sud binosida ko'rib chiqadi. Hal qiluv qarori ham tomonlar istagidan kelib chiqadigan mazmunda bo'ladi.

Hakamlik sudlari faoliyatining asosiy prinsiplari "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida berilgan⁹¹. Biroq biz fuqarolik (iqtisodiy) sud ishining boshqa umumiy prinsiplari ham hakamlik muhokamasiga o'z ta'sirini ko'rsatishi haqida gapirishimiz mumkin.

Hakamlik muhokamasi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi muhim amaliy usullaridan biridir. Zero, uning prinsiplari tadbirkorlik ehtiyojlari uchun to'la javob beradi. Hakamlik sudlari faoliyati asosiga taraflarning nizoni asliga ko'ra o'zlari tanlagan organga murojaat etishda ixtiyoriylik va ishonchlilik prinsiplari qo'yilgan⁹².

Hakamlik sudlari to'g'risidagi qonunning 28-moddasiga binoan, hakamlik sudyasi hakamlik muhokamasi davomida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni hakamlik muhokamasi taraflari yoki ularning huquqiy vorislari roziligisiz oshkor qilishga haqli emas. Bundan tashqari, yuqoridagi normaga ko'ra, hakamlik sudyasi hakamlik muhokamasi davomida o'ziga

⁹⁰ Пантелеева И. А. Семейная медиация как альтернативная процедура разрешения споров //Вестник нижегородского университета им. НИ Лобачевского. – 2014. – №. 1-2. – С. 452-457.

⁹¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 42-son, 416-modda; 2014-y., 20-son, 222-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2018-y., 03/18/463/0634-son; 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

⁹² Feruza I. et al. The concept and significance of corporate disputes: national and foreign experience //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – С. 5-13.

ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlar haqida guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emas. Bundan shu ma'no kelib chiqadiki, qonun konfidensial axborot xususida "guvohlik immuniteti" (daxlsizligi) institutini mustahkamlaydi⁹³.

Xorijiy amaliyotdan kelib chiqib oladigan bo'lsak, Singapur davlatida 2019 yilda hakamlik sudlarida jami nizolarning 95 foizi ko'rilgan. Davlat sudlarida esa nizolarning faqatgina 5 foizi ko'rilgan.

Mamlakatimizda ham hakamlik sudlari faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari vujudga keltirilib, izchil takomillashtirib borilayotganligi fuqarolar va yuridik shaxslarning sudlarga erkin murojaat etish huquqini kafolatlashda muhim o'rin tutayotganligi jiddiy e'tiborga molikdir. Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2020 yilda hakamlik sudida jami 1 ming 454 ta ish ko'rildi. Bu kam deyishimiz mumkin. Chunki pandemiya ko'p sohalar qatori hakamlik sudi faoliyatiga ham ta'sir etmay qolmadi.

Hakamlik sudining xo'jalik sudlari va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlardan farqli jihatlari quyidagilarda o'z aksini topadi:

- hakamlik sudi tomonidan nafaqat xo'jalik ishlari balki fuqarolik ishlari ham ko'rib chiqib hal etiladi. (xo'jalik sudlarida faqat yuridik shaxslarga oid xo'jalik nizolari ko'rilsa, fuqarolik sudlarida faqat fuqarolarga oid nizolar ko'riladi)⁹⁴;

- hakamlik sudida ishlar tezkorlik bilan hal etiladi.

- asosiy maqsad taraflarning kelishuviga yo'naltiriladi hamda taraflar o'rtasidagi hamkorlik saqlab qolinadi;

- hakamlik muhokamasining maxfiyligi qonun bilan kafolatlanadi;

- tomonlar jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortilmaydi;

- hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi;

- xo'jalik sudlari va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar hakamlik sudi tomonidan aniqlangan holatlarni tekshirishga yoki hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko'rib chiqishga haqli emas⁹⁵;

⁹³ Boboqulovna I. F. et al. MEDIATSIYA–SUD JARAYONIDA DAVLAT BOJINI QAYTARIB OLISH VOSITASIMI YOKI NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISH USULI? //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 86-92.

⁹⁴ Тихонова О. С., Сытых О. Л. АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ СПОСОБЫ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ В ПРАКТИКЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ (по материалам социологического исследования в Барнауле) //Труды молодых ученых Алтайского государственного университета. – 2013. – №. 10. – С. 281-283.

⁹⁵ Boboqulovna I. F. et al. MEDIATSIYA–SUD JARAYONIDA DAVLAT BOJINI QAYTARIB OLISH VOSITASIMI YOKI NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISH USULI? //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 86-92.

- hakamlilik sudlari yig'imi miqdori xo'jalik sudi yoki fuqarolik ishlari bo'yicha sudda ko'rib chiqilganda to'lanishi lozim bo'lgan davlat bojining yarmidan oshmaydi;

- hakamlilik sudining hal qiluv qarori ixtiyoriy ravishda bajarilmagan taqdirda, uni tegishli tartibda majburiy ijroga qaratish Qonun bilan kafolatlangan⁹⁶.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak mediatsiya va hakamlilik sudlari nizolarni muqobil hal qilishda juda samarali ekanligini bilishimiz mumkin. Shu sababdan ushbu sohani yanada takomillashtirish, qonunchilikdagi bo'shliqlar va kamchiliklarni to'g'irlash ushbu sohalarni rivojlantirishga doir chora tadbirlarni amalga oshirish huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning zaruriy sharti bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Арпентьева М. Р. Медиация в контексте проблем альтернативного разрешения споров //Вестник Федерального института медиации. – 2017. – №. 2. – С. 48-64.

2. Ibratova F. Problems of a settlement in bankruptcy cases in economic courts //Norwegian Journal of Development of the International Science. – 2019. – №. 28-3. – С. 23-25.

3. Арпентьева М. Р. Медиация в контексте проблем альтернативного разрешения споров //Вестник Федерального института медиации. – 2017. – №. 2. – С. 48-64.

4. Ibratova F. Foreign Practice of Use of Mediation on Collective Labor Disputes //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 57-62.

5. Романенко М. А. Альтернативные формы разрешения правовых конфликтов: выбор оптимальной модели //Вестник Астраханского государственного технического университета. – 2005. – №. 5. – С. 244-251.

6. Ibratova F. Legal Problems of the Concepts Legality, Justification and Justice by Judicial Acts //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 16.

7. Кузина В. И. Понятие, отличительные черты, преимущества и недостатки альтернативного разрешения споров //Мониторинг правоприменения. – 2012. – №. 4. – С. 69-73.

⁹⁶ Приженникова А. Н. Альтернативные способы разрешения споров: зарубежный и российский опыт //Символ науки. – 2015. – №. 9-2. – С. 123-127.

8. Ibratova F. BANKRUPTCY OF A LIQUIDATED BUSINESS ENTITY: PROBLEMS AND SOLUTIONS //Norwegian Journal of development of the International Science. – 2021. – Т. 2021. – С. 45.

9. Ibratova F. B. et al. Special features of modern legal systems: cases and collisions. – 2017.

10. Коровяковский Д. Г., Илюхина С. С. Альтернативные способы разрешения споров во внешнеэкономической деятельности в свете вступления России в ВТО //Ученые труды Российской академии адвокатуры и нотариата. – 2014. – №. 4. – С. 73.

11. Ibratova F. B. The Concept and Characteristics of Bankruptcy Procedures for Business Entities With the Status of a Legal Entity //Middle European Scientific Bulletin. – 2022. – Т. 20. – С. 143-147.

12. Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team,(2021). – 2021. – Т. 45.

13. Семилютина Н. Г. Корпоративные споры и развитие альтернативных механизмов разрешения споров //Журнал российского права. – 2015. – №. 2 (218). – С. 112-127.

14. Ibratova F. Bankrotlik to 'g 'risidagi ishlarda prokuror ishtiroki.

15. Babakulovna I. F., Ibraiyimovich E. B., Sodikovich O. S. SIMPLIFIED PRODUCTION IN THE ECONOMIC PROCESS AND ITS FEATURES: NATIONAL AND FOREIGN APPROACH //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – С. 42-50.

16. Шабалина Е. А. Альтернативное разрешение споров в форме медиации: опыт США //Конкурентное право. – 2016. – №. 4. – С. 43-46.

17. Babakulovna I. F. GROUNDS FOR THE INTRODUCTION OF BANKRUPTCY PROCEDURES FOR AN INDIVIDUAL ENTREPRENEUR OR AN INDIVIDUAL WHO HAS LOST THE STATUS OF AN INDIVIDUAL ENTREPRENEUR //International journal of professional science. – 2022. – №. 1. – С. 5-9.

18. Фролова Е. Е. Правовое регулирование альтернативного разрешения споров между поставщиками и потребителями финансовых услуг в Сингапуре //NOMOTHETIKA: Философия. Социология. Право. – 2017. – Т. 42. – №. 24 (273). – С. 159-164.

19. Babakulovna I. F. SECTION 4. JUSTICE //LBC 60. – 2022.

20. Bobokulovna I. F., Orif o'g'li R. B. MEDIATSIYA–OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 80-85.
https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/hakamlilik_sudlari_imkoniyatlari_dan_kengroq_foydalanish_lozim

21. Feruza I., Madina A., Asal R. LEGAL ISSUES OF JUDICIAL PROTECTION IN THE ECONOMIC COURT IN UZBEKISTAN //International journal of professional science. – 2022. – №. 4. – С. 5-10.
22. Худойкина Т. В., Прынзина В. С. Альтернативное разрешение споров и конфликтов в России //Проблемы современной науки и образования. – 2015. – №. 6 (36). – С. 164-166.
23. Babakulovna I. F. et al. The Concept and Types of Corporate Disputes: Theory and Practice //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 327-332.
24. Пантелеева И. А. Семейная медиация как альтернативная процедура разрешения споров //Вестник нижегородского университета им. НИ Лобачевского. – 2014. – №. 1-2. – С. 452-457.
25. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 42-son, 416-modda; 2014-y., 20-son, 222-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2018-y., 03/18/463/0634-son; 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)
26. Feruza I. et al. The concept and significance of corporate disputes: national and foreign experience //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – С. 5-13.
27. Boboqulovna I. F. et al. MEDIATSIYA–SUD JARAYONIDA DAVLAT BOJINI QAYTARIB OLISH VOSITASIMI YOKI NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISH USULI? //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 86-92.
28. Тихонова О. С., Сытых О. Л. АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ СПОСОБЫ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ В ПРАКТИКЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ (по материалам социологического исследования в Барнауле) //Труды молодых ученых Алтайского государственного университета. – 2013. – №. 10. – С. 281-283.
29. Boboqulovna I. F. et al. MEDIATSIYA–SUD JARAYONIDA DAVLAT BOJINI QAYTARIB OLISH VOSITASIMI YOKI NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISH USULI? //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 86-92.
30. Приженникова А. Н. Альтернативные способы разрешения споров: зарубежный и российский опыт //Символ науки. – 2015. – №. 9-2. – С. 123-127.